

O'zbekistonda COVID - 19 shtammi tarqalmasligining yagona yo'li

Bugun Yer resuslarini boshqarish fakulteti 1 ma'ruzalar zalida institut Tibbiy bo'limi bosh shifokori B.Eshniyozov COVID - 19 virusining Britanacha shtammi to'g'risida professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlarga ma'lumot berdi. Unda fakultet dekani Sh.Narbaev, yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova va guruh murabbiylar ishtirok edi. Genetik shaklini o'zgartirilgan, juda tez, tarqaluvchi, ayniqsa yoshlarga ko'proq yuquvchi COVID - 19 virusining Britanacha shtammi paydo bo'ldi. Bu tur tarqalishini oldini olish uchun nimalar qilish kerak. Yangi shtamm tarqalishini oldini olishning yagona va tug'ri yo'li bu zararlangan bemorni alohida (izolyatsiya) va ular bilan muloqatda bo'lgan shaxslarni ham alohida nazoratda olish zarur. To'g'ri, O'zbekistonda ayni paytda epidemiologik barqaror vaziyat hukmronlik qilmoqda. Ammo bu koronavirus infeksiyasi tarqalish xavfi butunlay tugadi, degani emas. Yuqorida aytilganidek, «COVID-19»ning B.1.1.7 shakli — «britanacha» shtammni yengishning yagona yo'li karantin qoidalariga amal qilishdir. Ayni paytda mamlakatimizda karantin cheklovlari bosqichma-bosqich yumshatilmoqda.



Agar aholimiz mana shu yumshatilgan tartibga to'liq rioya qilmasa, uning oqibatlarini qat'iy choralar ko'rilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, barchasi o'zimizga bog'liq. Muhimi, «COVID-19»ga qarshi vaktsina yangi shtammda ham foyda berishi aniqlangan. Shu bois, ommaviy emlash bizning yurtimizda boshlanishiga qadar har bir fuqaro o'z salomatligiga o'zi mas'ul bo'lib, tibbiy niqobdan muntazam foydalansa, karantin qoidalariga rioya qilsa, shubhasiz, biz dunyoning qator davlatlarida davom etayotgan bugungi epidemiologik noxush vaziyatdan saqlanib qolamiz, deydi mutaxassis. Hozirgi kunda ko'cha-ko'yda, transport, bozor va do'konlarda fuqarolarimizning o'ta xotirjamligi, karantin talab-qoidalarini pisand qilmayotgani, oddiy himoya vositalaridan foydalanmasligining guvohi bo'lyapmiz. Shu bois barchamiz karantin qoidalariga jiddiy qarashimiz, o'zimizni, oilamizni asrashimiz lozim.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati